
PIRIMQUL QODIROVNING “QADIRIM” QISSASI BADIYYATI

Botirova Anaxon

Urganch davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Pirimqul Qodirov qalamiga mansub “Qadrim” qissasining badiiyati turli xil obrazlar vositasida ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье через различные образы раскрывается художественность рассказа Пиримкула Кадырова «Кадрим».

Annotation: In this article, the artistry of the short story "Qadrim" written by Pirimkul Kadirov is revealed through various images.

Kalit soʻzlar: badiiylik, badiiy obraz, qahramon, epizod, insonshunoslik, qissa.

Ключевые слова: искусство, художественный образ, герой, эпизод, антропология, рассказ.

Key words: art, artistic image, hero, episode, anthropology, short story.

Adabiyotshunoslikning asosiy qoidalaridan biriga aylanib ketgan mashhur taʼrifga koʻra, adabiyot “insonshunoslikdir”. Bu atamaning aniq maʼnosi shuki, inson oʻzining intilishlari, ishlarining xilma-xilligi, oʻsishi va tanazzulga ketish jarayoni bilan badiiy adabiyotning materiali boʻlib xizmat etadi.

Inson adabiyotning tasvir predmetidir. Inson tasviri yoʻq joyda badiiy adabiyot yoʻq. “Inson tasviri” – butun boshli odamning ichki dunyosi, uning kechinmalari tasviri demakdir.

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati Pirimqul Qodirov ijodida ham boshqa yozuvchilar singari inson tasviri alohida ahamiyatga ega. “Uch ildiz” dan tortib “Qora koʻzlar” gacha, “Yulduzli tunlar” dan tortib “Ona lochin vidosi” gacha, “Qadrim” dan tortib “Meros” gacha – barcha-barchasida inson va uning yuksak fazilatlarini eng oliy masala hisoblanadi. Ayniqsa, 1961-yilda yozilgan “Qadrim” qissasini ham inson irodasi va qadr-qimmatiga qoʻyilgan haykal deyishimiz mumkin. Asarda mustabid shoʻro tuzumi tazyiqi ostida qolgan yurtdoshlarimiz hayoti mahorat bilan qalamga olingan. Ushbu qissa yozilgandan keyin yozuvchining oʻzi shunday degan: “ U vaqtlarda mustabid shoʻro tuzumi tariximizni, tilimiz va dinimizni kamsitishdan tashqari, yetakchi sanoat korxonalarida zamonaviy texnikalarni egallab, ishlashga intilgan milliy kadrlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarini mensimas edi. “Oʻzbeklar faqat dalada ketmon chopishni yaxshi biladi, katta sanoat korxonalarida murakkab texnikalar bilan ishlashni eplay olmaydi”, degan aqida kuchli edi. Bu aqidani va boshqa toʻsiqlarni yengib oʻtib, sanoat korxonalarida ilgʻorlar safida ishlab yurgan, yuragida oʻti bor oʻzbeklarimizni koʻrsak, koʻnglimiz koʻtarilardi”.

Haqiqatan ham, yozuvchi hayotga endi kirib kelayotgan yigit obrazi orqali boshqalarni qaramlikka qarshi kurashishga, qadr-qimmat, oʻzlik, gʻururni himoya qilishga hamda mustaqillik uchun kurashishga chaqirgan. Qissaning bosh qahramonlaridan biri Iskandar bolaligidan ogʻir sharoitda katta boʻladi. Oʻsha paytlarda ota-onasi dalada ketmon chopish bilan shugʻullanardi.

Ba'zan ularning o'rniga Iskandarning o'zi dalaga chiqib, mehnat qilardi. "Kitob o'qishim, bolalar bilan o'ynashim kerak bo'lgan paytlarda ham o'tinga borardim, yo sigirga o't o'rardim yoki tomorqada otam buyurib ketgan ishni qilardim", - deya eslaydi qahramon. Oradan biroz vaqt o'tib, Iskandarning otasi og'ir betob bo'lib, to'shakka mixlanib qoladi. Yoz bo'yi chopiqqa o'zi chiqadi, hattoki, yettinchi sinfni tugatar-tugatmas maktabni ham tashlab ketishga majbur bo'ladi. Iskandar obrazini asarga olib kirish orqali muallif o'sha davrdagi, o'sha sharoitdagi yoshlarning umumiy obrazini tasvirlagan bo'lsa, ajab emas! Chindan ham, Iskandarda o'zbek yigitlariga xos bo'lgan birso'zlilik, dadillik, vafodorlik, jasurlik kabi fazilatlarining barchasi mujassam.

Voqealar rivojida qishloqdan gaz konlariga kelib ishlayotgan ikki yosh qalb – Iskandar va Zulayhoning maktabda birga o'qigan paytlaridan boshlangan muhabbatlari xaloskor bir kuchga aylanadi. Ularning eng og'ir hayotiy sinovlardan chiniqib o'tishlariga va yong'in paytidagi o'ta xatarli vaziyatlarda jasorat ko'rsatishlariga qalblarini to'ldirgan muhabbat va sadoqatlari yordam beradi. Iskandarning shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topishida Zulayhoning ta'siri kuchli bo'ladi. U dadil, qat'iyatli, mustaqil fikrlovchi qiz, ba'zi yigitlarda yo'q xususiyatlar Zulayhoda mujassam. Buni hatto asar davomida qahramonlarning o'zi ham bir necha marotaba takrorlashadi. Iskandar uning: "Siz mustaqil odam emassiz!" degan tanbehidan achchiqlanib, hunar o'rganishga, o'z ustida astoydil ishlashga kirishadi...

Asarning asosiy g'oyasi "O'z qadrini bilmagan, o'zganing qadrini bilmaydi", degan hikmatni yodga soladi. Qadr, o'zlik, ishonch kabi noyob tuyg'ularni qalbida chuqur his qilgan qahramon ma'nan yetuk shaxs sifatida o'zini ko'rsatadi. Gaz qazib olish konida mehnat qilib, zamonaviy texnikalar bilan ishlashni o'rganadi, malakali kadr bo'lib yetishadi. Gaz qazib olish vaqtida sodir bo'lgan ulkan yong'inni bartaraf etishda yuksak jonbozlik ko'rsatadi. Bularning barchasi muhabbati Zulayho uchun atalgan edi. O'z davrida iste'dodli shoiramiz Nodirabegim bejizga shunday demagan:

"Muhabbatsiz kishi odam emasdur,

Gar odamsan muhabbatni ixtiyor et".

Aynan muhabbat atalmish sof tuyg'u orqali Iskandar o'z qadrini yana bir karra yuksaltirdi, o'zini qanday ishlarga qodir ekanligini isbotlaydi. Iskandar o'ziga ishonchi ortgandan so'nggina Zulayhoga munosibligini anglaydi.

Qahramon kashf qilgan hayot falsafasi quyidagicha jaranglaydi: "Dunyoda pul o'g'risi bor, mol o'g'risi bor, lekin qadr o'g'risi yo'qmi? Birovning qadrini yerga urish yo'li bilan o'z qadrini oshiradigan odam qadr o'g'risi emasmi? Men endi bilyapman: kishiga hayot qanchalik zarur bo'lsa, insoniy qadr-qimmat ham shunchalik zarur. Qorninga yig'layman, qadrimga yig'layman, degan eski maqol esimda bor. Mening qadrim mol-dunyo va o'tkinchi bir dovruq bilan o'lchanmaydi; odamlarimizdan ko'rgan yaxshiligim, jamiyatimizga keltirgan nafim, kommunizm quruvchilari safidan olgan o'rnim bilan o'lchanadi. Menimcha, hayotda eng muhimi – odamparvar bo'lish-u kishilarimizga yaxshilik qilish, insonning qadr-qimmatini uchun ham tinmay kurashish. Chunki kishi o'z qadrini bilmaguncha o'z baxtini tanimaydi". Shubhasiz, ushbu go'zal so'zlar bugungi hayotimiz bilan ham daxldordir.

Shuningdek, asar mutolaasi davomida Zulayhoning o'z nomusiga, o'z g'ururiga bo'lgan qadrini ham teran kuzatishimiz mumkin. Davron unga zo'rvonlik qilmoqchi bo'lganida

o‘zini har jihatdan mustahkam himoya qila oladi. Ushbu voqealar asar davomida quyidagicha tasvirlanadi: “ Zulayhodagi qo‘rquv o‘rmini endi cheksiz bir g‘azab egallaydi. Qizlik nomusi oldida joni ham ko‘ziga ko‘rinmaydi. U bor kuchini to‘playdi-da, o‘sha toshni mo‘ljallab, keskin ko‘tarib yumalaydi. Davron buni kutmagan va oyoqlarida ancha noqulay turgan ekan, chalqanchasiga yiqilib tushadi. To u o‘rnidan turib, yana hujum qilguncha, Zulayho toshni ikki qo‘llab yerdan ko‘taradi. Davron unga pichoq urmoqchi bo‘lib tashlanganida Zulayho toshni unga otadi. Tosh Davronning chakkasiga qarsillab uriladi. Uning pichoq o‘qtalغان qo‘li jonsizlanib pastga tushadi, so‘ng o‘zi ham gansiraklab yiqiladi”.

Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek, asar davomida salbiy, ikkiyuzlamachi qahramonlar ham uchraydi. Shulardan biri yuqorida tilga olganimiz Davrondir. Ushbu obrazni qissaga kiritish orqali muallif inson o‘z qadr-qimmatini anglab yetishida turfa xil xavf-xatarlarga, to‘siqlarga duch kelishini isbotlamoqchiday go‘yo. Davron asarda o‘zlikni anglashda inson duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar timsoli deyishimiz mumkin. Ammo Davron ham asar so‘nggida o‘z xatolaridan yetarlicha xulosa chiqaradi.

Ashur obrazi esa asarda qiziqqon, o‘ylamay qaror qabul qiladigan yigit sifatida tasvirlanadi. Manmanlik, takabburlik, o‘zidan kichiklarni mensimaslik Ashurga xos illatlardir. Biroq asar nihoyasida barchasi o‘z joyiga tushadi.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, qissani o‘qigan kitobxon inson va uning qadr-qimmatini har zamon va makonda barcha narsadan ustun ekanligiga to‘liq ishonch hosil qiladi. Istiqloq davrida Iskandar va Zulayhoga o‘xshab yangi konlar ochayotgan, ulkan korxonalarda eng murakkab zamonaviy texnikalarni jasorat va mahorat bilan boshqarayotgan yoshlarning safi beqiyos darajada kengaydi. Ushbu qissa shu kabi yoshlarning yetishib chiqishiga zamin yaratadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
2. Qodirov P. Qadrim. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.
3. Rasulova U. Munavvar taqdirlar talqini. – Toshkent, 2018.
4. 8-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent, 2019.
5. www.ziyouz.com